

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MILLIY TARBIYANING O'RNI

Samiyeva Shirin

Namangan Davlat Pedagogika inistituti Pedagogika va psixologiya yonalish magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada, ommaviy axborot vositalarining milliy tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, va an'analarni ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilishning dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek, OAV orqali yoshlarda vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, ommaviy axborot vositalari, milliy qadriyatlar, yoshlar, vatanparvarlik, ma'naviyat, axborot texnologiyalari.

Kirish

Milliy tarbiya – har bir xalqning ma'naviy boyligini saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazishda muhim omildir. Bugungi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalarining roli yanada ortib bormoqda. Ular nafaqat xabar yetkazish, balki milliy ongini shakllantirish, ma'naviyatni rivojlantirish, urf-odatlar va qadriyatlarni keng targ'ib qilish vositasi sifatida ham muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada OAVning milliy tarbiya jarayonidagi o'rnini ochib berishga harakat qilinadi.

Bugungi kunda dunyo jadal o'zgarish jarayonida. Barcha sohalarda axborotni olish va yetkazish, shuningdek, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish muhim zaruratga aylangan. Shu kabi murakkab sharoitlar hayot oldimizga yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda.[1]

Ommaviy axborot vositalari jamiyatning eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasi hisoblanadi. Chunki ular keng ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, dolzarb masalalarni hal qilishda ta'sirchan qurol va muhim tadbirlarni tashkil etishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu vositalar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib qilinadi. Ommaviy axborot vositalari demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos mezonini va ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Erkin va mustaqil OAV demokratik rivojlanishni rag'batlantirib, uni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Ommaviy axborot vositalarining yana bir muhim vazifasi milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishdir. Bu vazifa axborot tahdidlariga, mafkuraviy xavflarga qarshi samarali javob qaytarish, xalqimizni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan mustahkamlash va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Internet bugungi axborot makonining asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Endilikda internetdan nafaqat kompyuter tarmoqlari orqali, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari,

radiosignallar, kabel televideniyesi, telefon va uyali aloqa orqali ham foydalanish imkoniyati mavjud. U inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, buni tasdiqlovchi fakt sifatida bugungi kunda undan foydalanayotgan 2 milliarddan ortiq odamni keltirish mumkin.[2]

Ommaviy auditoriyaga erishishdagi tezkorlik bo'yicha internet barcha boshqa axborot vositalarini ortda qoldiradi. Misol uchun, 50 millionlik auditoriyani jalb qilish uchun radioga 38 yil, televideniyeiga 13 yil, kabel televideniyeiga esa 10 yil kerak bo'lgan bo'lsa, internet buni bor-yo'g'i 5 yilda amalga oshirdi. Internet insonlar tafakkuri, hissiyotlari va xulq-atvoriga ta'sir qilishda ulkan imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda uning rivoji g'oyaviy ta'sir ko'lamini sezilarli darajada oshirishga olib kelmoqda.

2000 yildan 2012 yil oxiriga qadar internet foydalanuvchilari soni 9,6 barobarga o'sib, 2,4 milliardga yetdi, mobil aloqa abonentlari esa 13,4 barobarga oshib, 6,7 milliardni tashkil etdi. Internet foydalanuvchilarining yarmi Osiyo qit'asiga (44,8% yoki 1,1 milliard kishi) to'g'ri keladi, qolganlari esa Yevropa (21,6%) va Shimoliy Amerika (11,4%) bo'ylab taqsimlangan. Jahon veb-auditoriyasining 45 foizini 25 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi, ulardan ko'pchiligi har kuni SMS-xabarlar jo'natadi (68%), ijtimoiy tarmoqlarga kiradi (51%) va elektron pochtdan foydalanadi (30%).[3]

Bugungi kunda virtual olamda 600 millionga yaqin veb-sayt faoliyat yuritmoqda, har oyda o'rtacha 201,4 trillion videorolik tomosha qilinadi va har kuni 144 milliard elektron maktub jo'natiladi. Foydalanuvchilarning aksariyati mobil qurilmalar orqali internetga ulanadi. 2018 yilga kelib, keng polosali ulanishlar soni 5,3 milliardga yetgan bo'lsa, 2007 yilda bu ko'rsatkich atigi 268 million edi. Ushbu davrda global ulanish darajasi 4% dan 69,3% gacha o'sdi.

Xalqaro elektraloqa ittifoqining ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilga kelib dunyo aholisining 60 foizi, ya'ni 4,1 milliard odam internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Smartfon va mobil aloqa tariflarining arzonlashishi natijasida yangi foydalanuvchilar soni tobora ortib bormoqda, 2017 yilda 200 milliondan ortiq kishi birinchi marta mobil qurilma sotib olgan. 2018 yilga kelib dunyo aholisining uchdan ikki qismi mobil telefon (asosan, smartfon) egaligiga ega bo'lib, foydalanuvchilar soni 5,175 milliardga yetgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4% ga ko'proqni tashkil etadi.[4]

XULOSA

Barcha ko'rsatilganlarni xulosalaylik, Mazkur maqola tahlil natijalariga asosan, Ommaviy axborot vositalari milliy tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylangan. OAV orqali xalqning boy ma'naviy merosini saqlab qolish, yosh avlodga qadriyatlarni yetkazish va ularni sog'lom ruhda tarbiyalash imkoni mavjud. Shuningdek, OAVning zamonaviy imkoniyatlari milliy tarbiya jarayonini yanada

samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bois, OAV faoliyatini milliy tarbiya yoʻnalishida takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." Toshkent, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2017.
3. Akhmedov N. "OAV va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya." Toshkent, 2020.
4. "Ma'naviyat asoslari" jurnali, 2023 yil, 2-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi materiallari.